

## ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING TILSHUNOSLIKKA OID QARASHLARI

**Ne'matova Mohinur Abduvali qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

**Muratova Nafisa Baxtiyarovna**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasи o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining buyuk siymosi Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asaridagi tilshunoslikka oid qarashlari haqida so'z boradi. Asarda qo'llanilgan so'z va qo'shimchalar fonetik, leksik, grammatik jihatdan bugungi kun tilshunosligi bilan taqqoslab qiyosiy tahlil qilinadi. Xulosalar misollar vositasida tushuntirib beriladi.*

**Kalit so'zlar:** affiks, tilshunoslik, tarix, adabiyot geografiya, etnografiya, iboralar.

### KIRISH

O'zbek klassik adabiyoting XV asr oxiri, XVI asr boshlarida yashab ijod etgan buyuk namoyondalaridan biri Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining murakkab va qisqa hayotida (1483-1530) anchagina asarlar yaratgan, ammo ularning hammasi ham bizgacha yetib kelgan emas. Boburning ilm xazinasini boyitib kelgan asarlari islom dini asoslarini bayon etuvchi “Mubayyin” nomli she'riy risolasi, “Voldiya” atalgan tasavvufga oid kitobi, o'zi ixtiro qilgan va “Xatti Boburiy” deb nomlagan alifbo jadvali hamda o'zbek balki, jahon adabiyotiga ham qimmatli meros qilib qoldirib ketgan “Boburnoma” asaridir.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Zahiriddin Muhammad Bobur ajoyib sarkarda, buyuk davlat arbobi, shoir, muarrix, geograf, etnograf, adabiyotshunos, islomshunos, musiqashunos olim sifatida dunyoga mashhurdir. Bobur tilshunoslikka oid biror asar yaratmagan ammo, uning “Boburnoma” asarida tilshunoslikka oid qimmatli fikrlarni ko‘rishimiz mumkin. U nutq madaniyatiga, fikrning sodda, ravon, hamma uchun tushunarli bo‘lishiga alohida e’tibor berdi. Bizga tarixdan ma’lumki Bobur umrining oxirgi yillarini hind zaminida o‘tkazadi, bu orqali u arab filologiyasidan tashqari hind filologiyasidan ham bahramand bo‘ladi. Arab, hind tillarining o‘ziga xos tovush tizimi o‘zbek tili tovush tizimidan farqlanishi, shuningdek, har qaysi tilning shevalalararo fonetik farqlanishi, shuning uchun ham ayrim so‘zlarning shu tilning qonuniyatiga muvofiqlashishi haqida fikr yuritadi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

“Boburnoma” asarida so‘zlarning fonetik, grammatik, leksik jihatdan, fonemalarning qo‘llanishi haqida U.Tursunov, B.O‘rinboyev hamda A.Aliyevlarning kitobida ko‘plab ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan: “Boburnoma” tilining turlanish kategoriyasi o‘ziga xos xususiyatga egadir. Boshqa yodgorliklardagi kabi unda ham chiqish kelishigi *-din*, *-tin* affikslari orqali yasaladi. Masalan, *Andijon suyi oshdin kelur Axsi suyi Kasandin kelur* shaklida qo‘llangan, bugungi kunimizga kelib esa chiqish kelishigi *-dan* qo‘shimchasi orqali ifodalanadi. Asarda qaratqich bilan tushum, o‘rin-payt bilan chiqish kelishiklari bir-birining o‘rnida qo‘llanaveradi. Mavhum egalik ma’nosini ifodalovchi *-niki* affiksining vazifasini qaratqich kelishigining qo‘shimchasi *-ning* orqali ifodalangan. *Xo‘jandda kelib edi.* (O‘rinboyev, Aliyev, Tursunov. O‘zbek adabiy tili tarixi. 1995. 144-bet.)

“Boburnoma” da sifat yasovchi *-li* affiksi uchramaydi. Nisbiy so‘zlar va mavhum otlar yasash uchun *-lig'*, *-lik*, *-luk* affiksi ishlataladi. Hozirgi kunimizga kelib esa bizda mavhum otlar ko‘pincha *-lik* qo‘shimchasi bilan qo‘llanadi. Asarda *-lar* affiksini olgan “yaxshi” sifati ma’lum darajada ishlataladi: *O‘zga tufang andozlar atmaqqa ko‘rsatib yaxshilar atdilar.* “Boburnoma” da o‘zbek tiliga xos bo‘lgan *-ta* yordamida yasalgan donalik sonlar, *-tadan* bilan yasalgan ulush sonlar, -

*tacha* bilan yasalgan chama sonlar, *-lab* bilan yasalgan chama-ulush sonlar uchramaydi. Ayiruv-ulush sonlar asosan *-ar*, *-rar* affiksi bilan, chama sonlar esa sintaktik yo'l bilan ifodalangan.

Hozirgi o'zbek tilidagi ravishlar “Boburnoma”da ham uchraydi, lekin unda hozirgi tilimizda bo'lman asru (*ko'p, juda ko'p*), otru (*ro'baro, qarama-qarshi*) ravishlari juda ko'p ishlatiladi.

“Boburnoma” da qo'llangan ko'makchilar hozirgi o'zbek tilidagiga o'xshaydi. Lekin unda *sayin* ko'makchisi bilan bir qatorda *sayi* ko'makchisi, “bilan” ko'makchisining *bila, birla, ila, la* muqobilari mavjud. *Old va yon* ko'makchilar o'rnida ko'proq *kash* ko'makchisi ishlatiladi. Masalan, *Songralar Sultan Maxmudxon qashig'a bardi*.

Hozirgi-kelasi zamon fe'li *-dur* affiksini qo'shish bilan yasaladi: *keladurman, keladursan* kabi.

“Boburnoma” eski uyg'ur tiliga xos bo'lgan ba'zi zamon shakllari mavjud. Ulardan biri *-gu* affiksi bo'lib, u kelasi zamon aniq fe'lini hosil qiladi: *kelgum, kelgung, kelgusi* kabi. Hozirgi o'zbek tilida esa kelasi zamon qo'shimchasining -a, -ajak, -gusi kabi qo'shimchalar bilan yasaladi (O'rinoiboyev, Aliyev, Tursunov. O'zbek adabiy tili tarixi. 1995. 145-bet). Asarda o'timli fe'llarning majhul darajadagi shakli tushum kelishigidagi otlarni boshqarish xususiyatiga egadir. Bu shakl o'zbek tilida uchramaydi. Shuningdek, Bobur arab tilida “g” tovushining yo'qligi, bu tovush ishtirok etgan so'zlar arab tiliga o'zlashtirilganda, “j” tovushi bilan almashtirilishi bayon qilinadi. Masalan, “*norgilni arabmuarrab qilib norjil der*”, -- deya bayon qiladi. (“Boburnoma”). Hindistonga borib o'rnashgandan so'ng bu o'lka haqida fikr yuritar ekan, Hindistonning hayvonot, parranda, o'simlik nomlari, fasl nomlari, o'lchov nomlarini batafsil izohlaydi. Nomlarni quyidagicha tematik guruhlarga bo'ladi:

**Hayvonot nomlari:** *fil, kark, sahroyi, govmish, kutaxpoy, gulaxra* aslida *gulaxxon*.

**Parranda nomlari:** *tovus, to'ti (jangali derlar), shorak, lucha, durroj, sahroyi, tovuq, shom, bo'lana, xorchal*.

**Suv va suv yoqalarida yuradigan qushlar:** *ding, soras, manik, laylak, ukor, buzak, o'rdak (shaxmurg derlar) zumaj*

**Suv hayvonoti nomlari:** *ilri obiy, sensor, ho'ki obiy, karyol, kokka baliq.*

**Nabotot nomlari:** *anbar, anbuli, maxva kirni, joman, kamrak, kadxil, badxal, karunda, panyola, xurmo, norgil va b.*

**Gul nomlar:** *josun, kanir, kiyura, jambuliy*

**O'lchov nomlari :** *rati, masha, misqol, tula, ser, botmon, moni, minosa, lak, kurur, arb, karb nil, padam, song.*

Bobur ma'lum laqab yoki taxallus bilan izohlanuvchi atoqli otlar haqida fikr yuritar ekan, bunday laqab va taxalluslarning etimologiyasi haqida ham qiziqarli ma'lumot beradi. Masalan, *olacha* laqabining etimologiyasi haqida yozadi: “*Sulton Mahmudxonin kichik Sulton Axmadxon edikim, Olachaxononga mashhurdir. Olachaxonning vajhi tasmiyasi muni derlarkim, kalmoq va mog‘ul tili bila o‘ltirguchini “olachi” derlar. Qalmoqni necha bosib qalin kishisin qirg‘on uchun olacha dedi kastari iste’mol bila Olacha bo‘lubtur*” (Boburnoma).

Boburning asaridan ma'lumki, demak bu so‘z Bobur yashagan vaqtida ya’ni XV-XVI asrlarda laqabni bildirgan ammo, bugungi kunga kelib yurtimizning ayrim hududlarida *olacha* so‘zi gilam ma’nosini bildiradi. Bundan ko‘rinib turibdiki, *olacha* so‘zi omonim so‘z hisoblanadi.

## XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz joizki, Zahiriddin Muhammad Boburning tilimiz rivojidagi hissasi beqiyos. Buning isboti sifatida bir tildan ikkinchi tilga o‘tgan so‘zning shu tilda ifodalangan ma’nosini, hatto o‘sha o‘tish davrida unda yuz bergen fonetik jarayonlarni va affikslarning qo‘llanilishini izohlab bergenligini ko‘rishimiz mumkin. Shu boisdan bugungi kunda ham ushbu asarlar o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmay tilimiz va turli sohalar taraqqiyotiga hissa qo‘sib kelmoqda.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. X. Nazarova “Boburnoma” tilining sintaktik qurilishi. Dokt. diss. – T.: Fan. 1966
2. U.Tursunov, B.O'rinoiboyev, A.Aliyev “O'zbek adabiy tili tarixi”. Toshkent. “O'qituvchi” 1995.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur . “Boburnoma”. Toshkent : O'qituvchi, 2008.